

Taqlid so‘zlar tahlili va talqini

Mamatova Marg‘uba Ummatqul qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

“O‘zbek tili va tillarni o‘qitish” kafedrasi o‘qituvchisi

Mamatov Avaz Muxiddinovich

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taqlid so‘zlarning paydo bo‘lishi haqidagi tahlil va talqinlar, uning turli xil ko‘rinishlari, kishilar, jonli va jonsiz predmetlar va hodisalar chiqargan tovushlar taqlidi, holat, harakatlar tasavvurini ifodalovchi birliklar sifatida izohlangan hamda tovushga taqlid va obrazga taqlid so‘zlar tarzida guruhlarga ajratilgan. Taqlid so‘zlar tahlili masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, alohida olingan so‘zlar, tasviriy so‘zlar, mimologiya.

Аннотация.

В данной статье проводится анализ и трактовка возникновения слова-подражания, его различных форм, подражания звукам, издаваемым людьми, одушевленными и неодушевленными предметами и событиями, как единицами, выражающими воображение ситуаций и действий, а также слов-подражаний звукам и действиям. Имитация изображения описаны в этой статье, разделены на группы. Рассмотрены проблемы анализа подражательных слов.

Ключевые слова: подражательные слова, изолированные слова, образные слова, мимология.

Annotation.

This article describes the analysis and interpretations of the appearance of imitation words, its various manifestations, imitations of sounds made by people, animate and inanimate objects and phenomena, interpreted as units representing the state, imagination of actions, and classified into groups in the manner of imitation of sound and imitation of image words. Issues of imitation word analysis have been addressed.

Keywords: imitation words, separately derived words, pictorial words, mimology.

**“San’at mohiyatan olamiy aqlga, ilohiy va tabiiy
olamga bo‘lgan taqlidning mahsulidir.”**

Aristotel

KIRISH

Kishilik davri rivojlanib, ibtidoiy jamoa kishilari olam va odam haqidagi ilk tasavvurlarining paydo bo‘lishi bilanoq taqlid nazariyasi shakillana boshlagan. O‘scha davr odamlari turli tabiat hodisalari-yu atrof-muhitdagi o‘zgarishlar, xatto, o‘z tovushlariga ham shubxa va hayrat bilan qarashgan, ularni ilohiy kuch natijasi deb bilishgan. Buni tilshunoslikning paydo bo‘lishiga oid 6 ta nazariyaning eng birinchisi ham aynan **Taqlid nazariyasi** ekanligidan ham bilishimiz mumkin. Keyinchalik esa taqlid nazariyasi asosida imo-ishora va undov nazariyalari paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan moslasha borib, o‘zлari o‘scha tabiat hodisalariga taqlid qila boshlagan, o‘zaro muloqat jarayonlari uchun foydalana boshlashgan. Masalan: kundalik ehtiyojlari uchun olov yoqish maqsadida ikki toshni bir-biriga urishi va uning natijasida paydo bo‘lgan olovning **chaq** degan tovushi keyinchalik **chaqin**, **chaqiriq**, **chaqmoq**, **chaqimchi**, **chaq-chuq** kabi so‘zlarning paydo bo‘lishi, tog‘ yonbag‘ida yashovchi jamoalar tog‘ning tepasidan oqib tushayotgan suvni o‘z tovushi asosida **sharshara** deb nomlashi misol bo‘ladi. Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kun tilshunosligida alohida ajratilgan so‘z deya o‘rganilayotgan **Taqliq so‘zlar** ko‘plab mustaqil so‘zlarning paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi.

ASOSIY QISM:

Bizga ma’lumki, taqlid so‘zlarga doir ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. A. Nurmonov, R. Sayfullayeva, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, A.Sobirov, Sh.Yusupova, Q.Sapayev, A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva va yana shu kabi bir qator tilshunoslarning asarlari bunga misol bo‘ladi . Taqlid so‘zlar boshqa turkiy tillardagidek o‘zbek tilida ham o‘zining barcha xususiyatlari bilan boshqa so‘z turkumlaridan farq qiladigan so‘zlar guruhi hisoblanadi. Taqlidiy so‘zlarning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular o‘z qurilishiga ko‘ra aniq bir xillikka ega va shu tufayli bu guruhdagi so‘zлarni osonlikcha ma’lum bir formula asosida joylash hamda aniq shakllangan guruhlarga ajratish mumkin. Taqlid so‘zlar va uning tilshunoslikda tutgan o‘rnini haqida bugungi kun tilshunoslida bir qancha qarashlar mavjud bo‘lib, xatto, ba’zi tilshunoslar

mustaqil so‘z turkumi sifatida ham qarashmoqda. Zero, bu so‘zlar atrofdagi muhitda uchraydigan ovozlarni qayta tiklab, tovush obrazi sifatida, predmetlar harakati tasvirini esa harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Tilshunos olim Q.Sapayev taqlid so‘zlar haqida “Kishi borliqdagi narsalarning turli tovushlari, sharpalari, harakat va shu’la ko‘rinishlariga o‘z tovushi bilan taqlid qiladi yoki ularning tovush deb tasavvur qilinadigan holatini yaratadi”, - degan fikrlarni aytadi.

Turkiy tillarda taqlid so‘zlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Taqlid so‘zlar - ma’no va shakliy xususiyatlariga ko‘ra, alohida guruhni tashkil qiluvchi, kishilar, hayvonlar va boshqa jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holat obrazini taqlidini ifodalovchi so‘zlar. Taqlid so‘zlar lug‘aviy ma’no anglatmasligi, maxsus sintaktik shakllarga ega emasligiga ko‘ra mustaqil so‘z turkumlaridan, so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni bildirmasligiga ko‘ra yordamchi so‘zlardan, emotsional-ekspressiv xususiyatlarga ega emasligiga ko‘ra undovlardan farq qiladi. Taqlid so‘zlarni o‘rganuvchi soha **mimologiya** deb ataladi.

Bugungi kunda taqlid so‘zlar an’anaviy ikki katta guruhga bo‘linadi:

- 1) Tovushga taqlid so‘zlar;
- 2) Obrazli (harakat-holatga taqlid) so‘zlar

Tilimizda tasviriy (taqlid) so‘zlarni tovush, harakat-holat bilan bir qatorda til birligiga ham taqlid so‘zlar mayjudligi zamonaviy tilshunoslik namunasi bo‘lgan “So‘z turkumlari paradigmaсидаги о‘заро алоқа hamda ko‘chish hollari” kitobida ta’kidlanadi. Til birligiga taqlid bildiradigan so‘zlar juft so‘z sifatida u hech qachon konkret ma’no bermasligi va hech qachon tilda o‘sma holda leksema sifatida uchramasligi va har qanday so‘zga (p), (m) tovushlarini kerakli o‘rnarda qo‘shish bilan uni taqlidini yasay olinishi fikrimizni isbotlashga harakat qiladi”-deyiladi. Tilimizdagagi barcha birliklarga bir (p), (m) tovushlari qo‘shilib, takrorlanib

taqlid yasalishi bilan bir qatorda, ayrim so‘zlarga (s) tovushi almashib, takrorlanishi natijasida taqlidi yasalishi ham kuzatiladi: Pul-sul, patir-satir kabi.

Unli tovush bilan boshlangan so‘zlarda ushbu tovushlar orttirilishi, undosh tovush

bilan boshlangan so‘zlarda esa tovush almashishi hodisasi yuz berish natijasida til

birligiga taqlid so‘zlar yasaladi. Tilshunoslikda bunday birliklar juft so‘zlar sifatida

o‘rganiladi. Xususan, A.Xojiyevning “O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar” kitobida shunday birliklar juft so‘zlar sirasidan joy olgan bo‘lib, birinchi

komponenti fonetik o‘zgarish orqali hosil qilingan juft so‘zlar deb ikkiga

bo‘linadi:

Birinchisi, birinchi tovushi o‘zgargan juft so‘zlar ko‘rsatiladi va bir qancha misollar keltiriladi: non-pon, meva-cheva, burda-surda kabilar. Ikkinchisi, bir undosh tovush orttiriladi deb misollar keltiriladi: irim-sirim, onda-sonda kabi Til birligiga taqlid so‘zlarning birinchi qismi tilimizda yakka holda ham qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lishini bunday birliklarning juft so‘zlardan farqli tomonlaridan biri sifatida keltirish mumkin. Fonetik o‘zgarishga uchrab takrorlangan qism esa, ma’no anglatmaydi va tilda yakka holda kelmaydi.

Fonetik

o‘zgarishga uchrab takrorlangan qism faqat ma’lum so‘zga umumiylilik, ta’kidlash,

mavhumlashtirish kabi xira ma’nolarni qo‘shilishiga yordam beradi. Shartli ravishda til birligiga taqlid so‘zlarning ikkinchi qismi konkret ma’no anglatmasligi,

mustaqil so‘z sifatida tilimizda ishlatilmasligini, bunday so‘zlarning juft so‘zlardan

yana bir farqli jihatni sifatida keltirish mumkin. Tilda mavjud barcha so‘zlarga nutq

vaziyatiga qarab til birligiga taqlid so‘zlar qo‘shilishi mumkinligi bunday birliklarning juft so‘zlardan asosiy farqli jihatni hisoblanadi.

Til birligiga taqlid so‘zlar ham o‘z o‘rnida ikki xil hosil bo‘lish xususiyatiga egadir: 1) So‘zning boshida kelgan undosh tovushning asosan (p), (m), (s) undosh

tovushlari bilan almashib takrorlanishi natijasida hosil bo‘lgan til birligiga taqlid

so‘zlar; 2) Unli tovush bilan boshlangan so‘zlarda bir undosh tovushning asosan

(p), (m), (s) tovushlari orttirilib takrorlanishi natijasida hosil bo‘lgan til birligiga

taqlid so‘zlar. Tilimizda ayrim hollarda (ch) undoshining ishtiroki natijasida ham

til birligiga taqlid so‘zlar yasalishi kuzatiladi: meva-cheva, bola-chaqa kabi.

Taqlid nazariyasi nafaqat tilshunoslik uchun balki, ko‘pgina sohalar, kishilar orasida ham o‘ziga hoslikka ega. Psixologiyada taqlid yangi, namunaviy narsalar va hodisalar tashqi ko‘rinishiga asoslangan holda ularni egallashga intilish jarayoni. U barcha yoshdagi insonlarga xos xususiyatdir. Taqlidning tashqi o‘xshashligiga

qaramasdan, har bir yosh davridagi taqlid o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ilk bolalikda odam taqlid qilish orqali kattalar bilan dastlabki aloqa, muloqot o‘rnatishga intiladi. Maktabgacha yoshda inson faoliyatining muhim tarkiblariga kirishga harakat qiladi. Bolalar syujetli, rolli o‘yinlar ijro etishda oshkora voyaga yetganlar hayoti va faoliyatiga, xulqatvorita kirib boradi, voqelik, vaziyat mohiyatini aks ettira boshlaydi. O‘smirlik yoshida kattalarga yoki tengdoshlariga o‘xshashlikka intilish orqali o‘zi uchun ahamiyatli shaxs fazilati, xulq-odobini o‘zlashtiradi. O‘sprinlarda kasbiy faoliyatga taqlid qilish kuchliroq aks etadi. Voyaga yetgan odamlar ham taqlid qilishga moyildirlar. Ular yurish-turishda, ish yuritishda, imorat qurishda, kiyinishda, sportda va shu kabida taqlid qilishga intiladilar.

Adabiyotlar:

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova, M.Abuzalova “Hozirgi o’zbek adabiy tili”. Toshkent-2009.
2. Sh.Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o’zbek tili” (darslik). Toshkent “Universitet” 2006.
3. T.Choriyev, N.Safarova, Sh.Istamova “O’zbek tili”. Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2008-yil.
4. “Hozirgi o’zbek tili” darslik. Toshkent “ZEBO PRINT” 2021-yil.
5. M.Asqarova, R.Yunusov, MYo’ldoshev, D.Muhamedova “O’zbek tili praktikumi”. Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2006-yil.